

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI**

U.I.Suvonqulov

**MAKTABGACHA
YOSHDAGI BOLALARDA ELEMENTAR
MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH**

(Kichik guruhlar uchun faoliyat ishlanmalari)

Samarqand – 2023

Suvonqulov U – Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi o‘qituvchisi “Maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish (kichik guruqlar uchun)”. Samarqand shahri, 2022-yil, 24-bet.

Taqrizchilar:

SH.Jumanov – O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti pedagogikafanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

M.Nigmatova – Samarqand viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ushbu uslubiy ko‘rsatmada maktabgacha ta’lim tashkiloti kichik guruh tarbiyalanuvchilarining elementar matematika bilan tanishitirishning, maqsadi va erishilgan ijobiy natijalari, tarbiyachilar bolalar bilan bu mashg‘ulotni qanday tashkil qilishlar, qanday o‘yinlar orqali mashg‘ulotlarni olib borishi bo‘yichama’lumotlar o‘z aksini topgan.

Uslubiy ko‘rsatmahududiy markaz Ilmiy-uslubiy kengashining 2023-yil 26-oktabr oyining 5-sonli yig‘ilish qarori bilan nashr etishgaruxsat berilgan.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasida “Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy O‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi”- deb ta`kidlangan.

Mashg‘ulot ta’lim tashkilotida bolalarga ta’lim berishning asosiy shaklidir. Tarbiyachi bolalarga ta`lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigenik, xulq madaniyati, gaplashish nutqi, sanoq-hisob harakatlari kabi turli tuman malaka va ko‘nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta’lim berishda bosh rolni mashg‘ulot egallaydi. Mashg‘ulotlar maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’limni tashkil etish shaklidir.

Maktabgacha ta`lim tashkilotida ta’limning frontal (umumiy), jamoaviy va yakka tartibdagi shakllaridan foydalilanadi. Bundan tashqari, bolalarga ta’lim berish ishlari ekskursiya, didaktik o‘yinlar orqali, kun davomida bolalarning mashg‘ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida, ularning o‘yinlariga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshirilib boriladi. Mashg‘ulot maktabgacha ta`lim yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma’lum o‘rin va vaqt ajratilgan. Mashg‘ulot tarbiyachi rahbarligida o‘tkaziladi, tarbiyachi mashg‘ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalarning amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etadi. O‘quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Mashg‘ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg‘ulot orqali bolalar o‘quv malakasini egallab oladilar.

Bolalarga bilim berishning jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta’sir etishadi, o‘z tashabbusi, topog‘onligini namoyon qilish imkoniyati tug‘iladi, jamoatchilik xissi shakllanadi. Mashg‘ulotda ta’lim berish orqali bolalarda maktabdagagi o‘qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik xissi, o‘zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to‘g‘ri sifatlar hosil qilinadi.

Mashg‘ulot bolalarning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini e`tiborga olib ma’lum izchillikda olib boriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya dasturida har bir yosh guruvida hafta davomida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar soni va vaqt qatiy belgilangan.

Kichik guruhlarida mashg‘ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar shakllantirilib boriladi. Bolalarda

ko‘zatuvchanlik, javobgarlik xissi takomillashtirilib boriladi, ularda mehnat qilish malakasi va xohishi tarkib toptiriladi.

MTTda kichkintoylarni tevarak-atrofdagi hayot, tabiat bilan tanishtirish, ularning nutqini, eng oddiy matematik tasavvurlarini o‘stirish mashg‘ulotlari, musiqa mashg‘ulotlari, qurish-yasash, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari olib boriladi.

Har bir yosh guruhida necha marta mashg‘ulot o‘tkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg‘ulot yosh guruhlari bo‘yicha necha daqiqa davom etishi MTT ning tarbiya dasturida ularning yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan xolda belgilab berilgan.

Mashg‘ulot quyidagi turlarga bo‘linadi:

Bolalarga yangi bilim beruvchi

Bolalarning to‘plagan bilim va tajribalarini mustahkamlovchi va sistemaga soluvchi mashg‘ulotlar.

Bolalarning bilimini sinovchi mashg‘ulotlar.

Kompleks mujassam mashg‘ulotlar

Namunaviy mujassam mashg‘ulotlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni

Kompleks mujassam mashg‘ulotlar bolalar bog‘chasi tajribasida keng tarqalgan bo‘lib, bunday mashg‘ulotlarda bolalarga yangi bilim beriladi, egallangan bilimlar mustahkamlanadi va takrorlanadi, sistemaga solinadi, olgan bilim va malakalarining amalda qo‘llashga o‘rgatiladi. MTTda tasviriy faoliyat, konstruktsiyalash, tevarak-atrofdagi ijtimoiy hayot va tabiat bilan tanishtirish, nutqni o‘stirish, savod o‘rgatish, eng oddiy matematik tasavvurlarni rivojlantirish, musiqa va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘tkaziladi.


Mashg‘ulotga to‘g‘ri tayyorgarlik ko‘rib, uyushgan xolda o‘tkazilganda bolalar oldiga ma‘lum aqliy vazifa qo‘yilgan taqdirda, ularning fikrlash faoliyati rivojlanadi. Aqliy vazifalarning birligi va muayyan qiyinchilik bolalarni uysushtiradi va ularning diqqatini ma‘lum tomonga yo‘naltiradi. Eng avvalo bolaning aqliy vazifani xal etish yo‘lidagi qiyinchilikni yengish imkoniyati tug‘iladi, natijada bolada faoliyatga qiziqish uyg‘onib, u malakani egallash uchun mustaqil intiladi, o‘ylaydi va vazifani uddasidan chiqish uchun faxm farosatini ishga soladi. Nusxa olish tarzidagi vazifani bajarish natijasida bola tarbiyachini ko‘rsatmasi va namunasiga qarab malaka va ko‘nikmalarni o‘rganadi. Bu bolalarni amaliy va aqliy faoliyat usullarini egallab olishlari uchun zarurdir. Bolalar qalamni, mo‘yqalamni, qaychini ushlashni, rasm chizish, narsa yasash, solishtirish umumlashtirish, abstraktiyalashni o‘rganadilar. Mashg‘ulotlarda ta’lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo‘r berishni talab etadi, ya`ni u bolani aktiv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib bola ma‘lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg‘ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatini e’tiborga olish zarur:

mashg‘ulotning vaqtini, kun tartibidagi o‘rnini dasturning har xil bo‘limlarini to‘g‘ri almashtirib turishni oldindan o‘ylab, aniq belgilab olish zarur.

Mashg‘ulotlarni kuning birinchi yarmida o‘tkazish maqsadga muvofiqdir, chunki, birinchidan bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, xona tabiiy yorug‘lik bilan yaxshi ta`minlangan bo‘ladi.

Mavzu: Guruhdan bir predmetni ajratishni, alohida predmetlardan guruh hosil qilishni o‘rgatish

Maktabgacha yoshdagি kichik guruh bolalarini sanoqqa o‘rgatishdagi bosh vazifalardan biri bir to‘plam elementlarini ikkinchi to‘plam elementlari bilan taqqoslash, solishtirish yo‘li orqali bolalarni to‘plamlarni taqqoslashga o‘rgatishdan iborat. Bu dastlabki bosqich kelgusida sanoq faoliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bola miqdoriy taqqoslash usullarini egallaydi. Bola sanashni bilmaydi, shu sababli u oldin taqqoslanayotgan to‘plamlarning qaysinisi ko‘p, qaysinisi kam ekanini, yoki ular teng quvvatli ekanini aniqlashni o‘rganadi. Bolalarda kelgusida matematik tasavvurlarni rivojlantirish ko‘p jihatdan sanoqqa o‘rgatishning boshlang‘ich davriga bog‘liq.



- Aloida predmetlardan guruh hosil qilishni, guruhdan bir predmetni ajratishni o‘rgatish.
- «Ko‘p» va «bitta» tushunchalarining ma’nosini tushuntirish, nutqida «ko‘p», «bitta», «bittaxam», «bittadan» so‘zlarini ishlatishni mashq qildirish.

Kutilayotgan natija:

- Bolalar «bitta» va «ko‘p» xaqida tushunchaga ega buladilar.

Bolalar bilimlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan, ishtirok etishga mo‘ljallangan interfaol usullar:

- Qisqa hikoya
- Tushuntirish

- Savol-javob
- Bilimlarni mustaxkamlash uchun o‘yin

Kerakli jihozlar:

- O‘yinchoqlar to‘plami-onamushuk va mushukchalar (mushukchalar soni, bolalar soniga teng bo‘lishi kerak).

Faoliyatga tayyorgarlik:

- Stol ustiga o‘yinchoqlar-ona mushuk va mushukchalar usti yopiq xolda qo‘yiladi. Bolalar stol atrofida yarim doira bo‘lib o‘tiradilar.

1. Guruhdan bir predmetni ajratishni, aloxida predmetlardan guruh hosil qilishni o‘rgatish.

2. Alovida predmetlardan guruh hosil qilishni, guruhdan bir predmetni ajratishni o‘rgatish.

3. «Shuncha», «Teng», «Ko‘p», «Kam» so‘zlarini tushunish, nutqda foydalanishni o‘rgatish.

4. «Qancha?», «Shuncha», «Teng» so‘zlarining ma’nosini tushunish va nutqda qo‘llash.

5. 1 soni bilan tanishish.

6. 2 soni bilan tanishish va 2 soni ichida predmetlarni sanashni o‘rgatish.

7. 3 soni bilan tanishish va 3 soni ichida predmetlarni sanashni mashq qilish.

8. 4 soni bilan tanishish va 4 soni ichida predmetlarni sanashni mashq qilish.

9. 1 dan 4 gacha sanash ko‘nikmalarini mustaxkamlash.

Miqdor (Kattalik)

Miqdor haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda bir jinsli (bir xil) buyumlardan guruhlar tuzish va guruhnini alovida buyumlarga ajratishga doir har xil o‘yin-mashqlar ma’lum o‘rinni olishi kerak. Odatta bu o‘yin-mashqlar mashg‘ulotda ma’lum izchilda o‘tkaziladi.

Birinchi mashg‘ulotda bir xil o‘lcham va rangli mutlaq aynan o‘yinchoqlarning — sabzilar, archalar, jo‘jalarning majmuilari tuziladi, bunda guruhda bolalar qancha bo‘lsa, o‘yinchoqlar ham shuncha bo‘lishi kerak. Tarbiyachi dastlab bolalarga bittadan o‘yinchoq ulashadi, o‘z harakatlarini ushbu so‘zlar bilan tushuntiradi: «Menda archalar juda ko‘p. Men bolalarning hammasiga bittadan archa berib chiqaman. Menda bittaham archa qolmaydi...» Shundan keyin bolalarga murojaat qiladi: «Har biringizda nechtadan archa bor?» Shundan keyin tarbiyachi hamma o‘yinchoqni yig‘ib oladi, bunda u bitta ham yo‘q (bolada) juda ko‘p (tarbiyachida) so‘zlariga urug‘ beradi.

Mashqni boshqa o‘yinchoqlar bilan yana bir marta takrorlash mumkin. Har gal tarbiyachi ko‘p, bitta, bittadan, bitta ham yo‘q, hech narsa yo‘q so‘zlarini ishlataladi; «Qancha?», «Qanchadan?» — savollarini qo‘yadi. Kichkintoylar buyumlarni va ular qanchadanligini (ko‘p, bitta) aytadilar. Mashg‘ulotning borishida bolalar to‘plam alohida buyumlarga ajralishiga va alohida buyumlardan tuzilishi mumkinligiga ishonch hosil qiladilar.

1. Uzunligi bo‘yicha keskin farq qiluvchi predmetlarni qiyoslashni o‘rgatish.
2. Uzunlik bo‘yicha taqqoslashni davom ettirish.
3. Predmetlarni uzunligi va yoniga qarab taqqoslashni o‘rgatish.
4. Predmetlarni uzunligi, balandligiga ko‘ra qiyoslash.
5. Predmetlarni uzunligiga ko‘ra ustiga va tagiga qo‘yish usullaridan foydalanib qiyoslashni o‘rgatish.
6. Namunadagi rasm yordamida ustiga qo‘yib taqqoslash usuli bilan tanishtirish.
7. «Baland», «Past», «Bir xil», «Har xil» so‘zlarini farqlashga o‘rgatish.
8. Predmetning o‘lchamini aniqlash, berilgan belgisiga ko‘ra qiyoslash.
9. Bir xil o‘lchamdagи predmetlarni ajratish vafarqlash.

Matematika mashg‘ulotlarida bolalar eng sodda geometrik figuralar bilan, ularning ba’zi xossalari bilan tanishadilar, buyumlarni geometrik etalonlar bilan taqqoslash asosida ularning (buyumlarni) shaklini tahlil qilish va baholashni o‘rganadilar.

Bolalarda asta-sekin shakl haqidagi umumiy tasavvur shakllanadi, bunday tasavvur maktabda geometriya, chizmachilik kabi fanlarni o‘zlashtirish uchun asos bo‘ladi.

Bola biroz ulg‘aygandan so‘ng o‘yinchoqlarini geometrik figuralar bilan solishtira boshlaydi. Masalan: Mana bu tayoq stolbagaga o‘xshaydi, manabu tarvuzga o‘xshaydi ya’ni hamma narsalarni bir-biriga o‘xshatish.

Predmetlarning shaklini aniqlashda geometrik figuralar etalon bo‘lib xizmat qiladi. Shakl xuddi razmerga o‘xshab bir predmetni ikkinchi predmetdan farqlashga yordam beradi.

Bolalarda shakl haqidagi tasavvurlarini shakllantirish sensor tarbiyaning bir muammoi deb hisoblanadi.

Kam tanish bo‘lgan predmetlar shaklini hech narsa bilan o‘xshata olmaydi, shuning uchun shaklning belgisiga ko‘ra ularni umumlashtira olmaydilar. Predmet shaklini aniqlashda geometrik figuralarning roli katta.

Geometrik shakllar




1. Doira shakli bilan tanishtirish.
2. Doirani sezgi-harakat va kuruv yullari bilan tekshirish usullarini o‘rgatish.
3. Kvadrat shakli bilan tanishtirish.
4. Doira va kvadratni bir-biridan farqlashga o‘rgatish.
5. Uchburchak shakli bilan tanishtirish.
6. Shakli bir xil, o‘lchami har xil bulgan predmetlarni farqlash.
7. Uchburchak shaklini sezgi, harakat va kuruv yo‘llari bilan tekshirish usullarini o‘rgatish.
8. Tevarak-atrofdagi predmetlardan o‘ziga tanish bo‘lgan geometrik shakllarni ko‘ra bilishga o‘rgatish.
9. Doira, kvadrat, uchburchakni bir-biridan farqlashga va qiyoslashga o‘rgatish.

Fazoviy tasavvur

Maktabgacha yoshdagи bolalarda “O‘ziga” nisbatan mo‘ljal olishga o‘rgatishdan, iborat, boshqacha aytganda, kichkintoy bunda “O‘ziga” nisbatan O‘ng, chap, yuqori tomonlarni ajrata oladigan bo‘la olishi kerak. O‘z tanasiga nisbatan fazoda tomonlar bo‘yicha mo‘ljal olish bu mo‘ljal olishning birinchi


umumlashtirilgan usulidir. “O‘ziga” va “o‘zi”ga nisbatan mo‘ljal olishda “o‘ng-chapni”ni farqlash eng ko‘p qiyinchilik tug‘diradi. Manashuning uchun ham bola oldin o‘z qo‘llarini farqlashga o‘rgatiladi. Dasturning bu vazifasi ustidaishlash keyingi yosh guruhida ham davom ettiriladi.



1. O‘ng va chap qo‘lni farqlay olishni o‘rgatish.
2. O‘ng va chap qo‘lni farqlashni o‘rgatishni davom ettirish
3. Predmet (o‘yinchoq)larni o‘ng qo‘l bilan chapdan o‘ngga qo‘yishni o‘rgatish.
4. O‘z o‘zidan harakat yo‘nalishini: oldinda (oldinga), orqasida (orkaga) tushunchalarini aniqlashga o‘rgatish.
5. O‘z-o‘zidan harakat yo‘nalishini, o‘ngdan (o‘ngga), chap tomonidan (chapga) tushunchalarini farqlash.
6. Yuqorida (yuqoriga), pastda (pastga) degan tushunchalarini aniqlashga o‘rgatish.
7. Bolalarni ko‘rsatilgan yo‘nalishda muljal olishga, berilgan shart bo‘yicha o‘z xolati o‘rnini belgilashga o‘rgatish.
8. Bolalarni o‘zlaridan yuqoriga, pastgakabi harakat yo‘nalishlarini aniqlashga mashq qildirish.
9. Yil davomida o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash.

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: «Miyovv, miyovv!»- Bu miyovlayotgan nima ekan? (Tarbiyachi onamushukning ustini ohib k'rsatadi). Bu onamushuk-ku. Ona mushuk nechta ekan? Onamushuk nimalarni chaqiryapti? (Tarbiyachi mushukchalarining xam ustini ochadi va bolalarning diqqatini mushukchalarining ko‘p ekanligiga qaratadi. «Ko‘p» so‘zini aloxida intonatsiya bilan talaffuz etadi. Bitta mushukchani qo‘liga olib suraydi: «Menda nechta mushukcha bor? to‘g‘ri. Menda bitta mushukcha bor. Ona mushukda qancha mushukchalar bor? Ha, onamushukda mushukchalar ko‘p», -deb tarbiyachi bolalarning javoblarini ma’qullaydi.



Keyin bolalarni navbat bilan chaqiradi va bittadan mushukcha olishni taklif qiladi. Har bir bola bittadan mushukcha oladi, onamushukning bolalari tobora kamayib boraveradi, oxiri bittaxam qolmaydi. «Bittadan» va «bitta ham» so‘zлari urg‘u berib aytiladi. Bolalar «bittadan» mushukcha olganlaridan keyin ona mushukda «bittaham» mushukcha qolmaganini ko‘radilar.

Tarbiyachining taklifi bilan bolalar mushukchalarini yaxshilab ko‘rib chiqadilar. Tarbiyachi savol beradi: «Mushukchalar qanday rangda? Qani aytingchi, sizlarda nechtadan mushuk bor?» Savollarga 2-3 bola javob beradi. Tarbiyachi ularning javoblarini umumlashtiradi: «Jamolda bitta mushukcha, Ulug`bekda bitta mushukcha,

Lolada bitta mushukcha, Kamolda bitta mushukcha, Yulduzda bitta mushukcha, xammada bittadan mushukcha bor, onamushukda esa bitta ham mushukcha qolmadi. Kelinglar, hammamiz birgalikda aytamiz: bitta ham mushukcha qolmadi! «Miyovv, miyovv!»- ona mushuk mushukchalarini chaqiryapti. Onamushukda ko‘p mushukcha bo‘lishi uchun nima qilishimiz kerak? Ona mushukda ko‘p mushukcha bo‘lishi uchun, qo‘lingizdagi mushukchalarni olib kelishingiz kerak».

Tarbiyachi bolalarni navbat bilan stol yoniga chaqiradi, har bir boladan u nechta mushukcha olib kelganligini suraydi, ularning olib kelgan mushukchalarining sonini ta’kidlab aytib turadi: «Kamol bitta mushukcha olib keldi, Jamol bitta mushukcha olib keldi, Lola bitta mushukcha olib keldi, bolalar karanglar, mushukchalar ko‘payib bormoqda». Hamma mushukchalar stolga quyilganidan keyin onamushukda qancha mushukcha bo‘lgani aytildi. «Hamma bittadan mushukcha olib keldi va ona mushukning mushukchalari ko‘p buldi».

«Ha, ona mushukning mushukchalari ko‘p. Ona mushuk nechta? To‘g‘ri, ona mushuk bitta. qaysi ko‘p: onamushukmi yoki mushukchalarmi? To‘g‘ri, mushukchalar ko‘p, onamushuk bo‘lsa bitta».

Bolajonlar, xozir men sizlarga qiziqrli hikoya aytib beraman. Bitta mushukning ko‘p mushukchalari bor ekan. Bolajonlar mushuk nechta ekan? Bitta. Mushukchalarchi? To‘g‘ri, mushukchalar ko‘p ekan. Mushuk bolalarini qanday qilib chaqiradi? To‘g‘ri, «miyovv» deb chaqirar ekan. Mushukchalarchi, ular qanday javob beradilar? Mushuk mushukchalari bilan har xil o‘yinlar o‘ynar ekan. Masalan: «Bekinmachoq» o‘yinini o‘ynar ekan. «Bekinmachoq» O‘yinini bilasizlar, bir kishi ko‘zlarini yumib turadi, boshqalar yashirinadi. So‘ng ko‘zini yumib turgan bola, ko‘zini ochib, yashiringanlarni topadi.

Hoxlaysizlarmi, xozir mushukchalar bilan «Bekinmachoq» O‘yinini o‘ynaymiz. Biz mushukchalarning onasi bilan k o‘zimizni yumib turamiz. Sizlar har biringiz bittadan mushukchani olib, u bilan birga yashirinasiz. Keyin biz sizlarni izlab topamiz.

Biz ko‘zimizni yumib turibmiz, qani, bolajonlar, har biringiz bittadan mushukchani olib, u bilan birga yashirining. Hamma bolalar va mushukchalar yashirinib buldimi? Biz izlashni boshladik!

Jamolbek, siz mushukcha bilan stol yoniga yashiringansiz, sizni topib oldik. Mushukcha bilan yonimga keling. Jamolbek, siz nechta mushukcha olib keldingiz? To‘g‘ri, bitta mushukcha olib keldingiz. Miyov-miyov! Mushukchalarning onasi xursand buldi.

Xuddi shunday qilib tarbiyachi xamma bolalarni topadi. «Bekinmachoq» o‘yin yoqdimi, bolajonlar?

So‘ngra stol ustida nechta mushuk va qancha mushukchalar borligini suraydi.

Bolalar bilimini tekshirish vamustaxkamlash uchun savollar:


1. Ona mushuk nechta?
2. Mushukchalar qancha, ko‘pmi, bittami?

Faoliyat yakunidabolalarni rag‘batlantirish.


Mavzu: Alovida predmetlardan guruh hosil qilishni, guruhdan bir predmetni ajratishni o‘rgatish

Maqsad:

- Alovida predmetlardan guruh hosil qilishni, guruhdan bir predmetni ajratishni o‘rgatishni davom ettirish.
- «Ko‘p» va «bitta» tushunchalarining ma’nosini tushuntirish, nutqida «ko‘p», «bitta», «bitta ham», «bittadan» so‘zlarini ishlatishtni mashq qildirish.



Rasmida nimalar tasvirlangan? Ularni sano va nechta ekanligini ayt.
1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 – to‘qqizta qulupnay.



Kutilayotgan natija:



- Bolalarning bitta va guruh xaqidagi tushunchalari mustaxkamlanadi.

Kerakli jihozlar:

- Sharlar (har bir bolaga)
- Sharlar rasmi chizilgan qog‘ozlar (har bir bolaga)

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar, kelinglar, doirabulib utirib olamiz. Karanglar, men sizlarning malar olib keldim? To‘g‘ri, sharlar. Men sizlarga qancha shar olib keldim? Ko‘p sharlar olib keldim. Hozir har biringizga bittadan shar beraman. Bolajonlar, sizning qo‘lingizda nechtadan shar bor? Mendachi?



Endi hamma o‘zining sharini puflaydi, qani kim birinchi bulib, katta qilib puflar ekan. Sharlarni katta qilib pufladik. Biz sizlarga sharni bog`lashga yordam beramiz. Bolajonlar, har birimizda nechtadan shar bor? To‘g‘ri har birimizda bittadan shar bor.

Bolajonlar, mening o‘ng tomonimdagи boladan boshlab har biringiz qo‘lingizda nechta shar borligini va qanday rangda ekanligini navbat bilan aytasiz. Masalan, mana bunday qilib, «Mening qo‘limda bitta shar bor, u sariq rangda». Xammagatushunarli buldimi, undaboshladik.

Xamma bolalar aytib bulganlaridan so‘ng tarbiyachi deydi: Endi Ulugbek doira urtasida turadi. Biz navbat bilan o‘nga sharimizni beramiz. Sharni berayotganda «Men bitta shar berdim», deb aytamiz. Bolajonlar, xamma sharini Ulugbekka bergenidan keyin Ulugbekda qancha shar buldi? Ulugbekda ko‘p shar buldi. Bolajonlar, endi bizda nechta shar bor? To‘g‘ri, bizda bitta xam shar qolmadi, xammasini Ulug‘bekga berdik. Kelinglar, xammamiz birgalikda aytamiz «Bittaxam shar qolmadi».

Ulug`bek, siz sharlarning ichidan bittasini ajratib oling, ko‘p sharlarni olib quyamiz. Bolalar, doira bo‘lib turib olamiz va bitta sharni bir-birimizga otib o‘ynaymiz. Bolalar, biz ko‘pmiz, sharchi ko‘pmi, bittami? (O‘yin 5 daqiqa davom etadi).

Bolalar uchun amaliy ish.

Har bir bolaga bitta va ko‘p sharlar tasvirlangan qog‘oz beriladi, bolalar sharlarni uzlari xoxlagan rangga buyaydilar. Bolalar ishni tugatganlaridan so‘ng tarbiyachi suraydi: Bitta sharni qanday rangga buyadingiz? Ko‘p sharlarni qanday ranglarga bo‘yadingiz?

Bolalar bilimini tekshirish vamustaxkamlash uchun savollar:





1. Bolajonlar, mening qo‘limda nechta qo‘g‘irchoq? (1 ta).
2. Qo‘g‘irchoqning boshi nechta? (1 ta).
3. Qo‘g‘irchoqning sochlari qancha? (KO‘p).
4. Hammamizda bittadan shar bulsa va biz sharlarni

Ulug‘bekka bersak unda sharlar qancha bo‘ladi? Bizda, qanchashar qoladi?

Tarbiyachi:-Bolajonlar, bugun men sizlardan juda xursand bo‘ldim, hammangiz topshiriquqlarni juda yaxshi bajardingiz.

Fazoviy tasavvur

Maktabgacha yoshdagি bolalarda “o‘ziga” nisbatan mo‘ljal olishga o‘rgatishdan, iborat, boshqacha aytganda, kichkintoy bunda “o‘ziga” nisbatan o‘ng, chap, yuqori tomonlarni ajrata oladigan bo‘la olishi kerak. O‘z tanasiga nisbatan fazoda tomonlar bo‘yicha mo‘ljal olish bu mo‘ljal olishning birinchi umumlashtirilgan usulidir. “o‘ziga” va “o‘zidan” ga nisbatan mo‘ljal olishda “o‘ng-chapni”ni farqlash eng ko‘p qiyinchilik tug‘diradi. Manashuning uchun ham bola oldin o‘z qo‘llarini farqlashga o‘rgatiladi. Dasturninng bu vazifasi ustida ishslash keyingi yosh guruhida ham davom etiriladi.



Mavzu: O‘ng va chap qo‘lni farqlay olishni o‘rgatish

Maqsad:

- Bolalarga o‘ng vachap qo‘lni farqlashni o‘rgatish.

Kutilayotgan natija:

- Bolalar o‘ng va chap qo‘lni farqlashni o‘rganadilar.

Kerakli jixozlar:

- Oq qog‘oz va qalamlar (har bir bolaga).

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar, biz ovqat yeyayotganda qoshiqni qaysi qo‘limizda ushlaymiz? Qani, hammamiz qoshiqni ushlaydigan qo‘limizni baland kutaramiz. Bu qo‘limiz qanday nomlanadi, bilasizlarmi? To‘g‘ri, bu qo‘limiz- o‘ng qo‘l. Ko‘pchilik bolalar va kattalar ishlarni o‘ng qo‘lda qiladilar. Masalan: yozishda ruchkani o‘ng qo‘lda ushlab yozadilar, rasm chizishda qalamni o‘ng qo‘lda ushlab chizadilar, olmani archish uchun pichoqni o‘ng qo‘lda ushlaydilar va x.k. Ba’zi bolalar chap qo‘lda yozadilar va boshqa ishlarni xam chap qo‘lda bajaradilar. Bolalar, qani chap

qo‘lingizni kutaringchi. Qo‘llarni tushiramiz. Hozir sizlar bilan bir o‘yin o‘ynaymiz. Men «O‘ng qo‘lni ko‘taramiz, tushiramiz, chap qo‘lni ko‘taramiz, tushiramiz» so‘zlarini aytib turaman. Sizlar qaysi qo‘lni aytsam, o‘sha qo‘lni baland ko‘tarasizlar va tushirasizlar.

O‘yinni boshladik:

O‘ng qo‘lni ko‘taramiz, tushiramiz.

Chap qo‘lni ko‘taramiz, o‘ng qo‘lni ko‘taramiz, o‘ng va chap qo‘lni tushiramiz.

Chap qo‘lni ko‘taramiz, tushiramiz.

O‘ng va chap qo‘lni ko‘taramiz, o‘ng qo‘lni tushiramiz, chap qo‘lni tushiramiz.

Bolalar uchun amaliy ish

Tarbiyachi: Endi bolajonlar, sizlar bilan rasm chizamiz. Oldin oldimizdagи oq qog‘ozga chap qo‘limizni qo‘yamiz va o‘ng qo‘limizga qalamni olib chap qo‘limizning chetidan yurgizib chiqamiz. Manachap qo‘limizni chizib oldik, endi yoniga o‘ng qo‘limizni quyamiz va chap qo‘limizga qalamni olib, o‘ng qo‘limizning chetidan yurgizib chiqamiz. O‘ng va chap qo‘limizni chizib oldik. Bolajonlar, aytinglarchi sizlarga o‘ng qo‘lda rasm chizish oson bo‘ldimi yoki chap qo‘lda chizish oson bo‘ldimi? O‘ng qo‘lda chizish oson buldi deganlar, O‘ng qo‘lini kutarsin. Chap qo‘lda chizish oson buldi, deganlar chap qo‘lini ko‘tarsin.

Bilimlarni mustaxkamlash uchun O‘yin: «O‘ng va chap»

Bolalar xona bo‘ylab harakat qiladilar. Tarbiyachi O‘ng va chap so‘zları bilan boshlasa bo‘ladigan tana a’zolaridan birining nomini aytadi, masalan, “O‘ng qo‘l” deydi. Shunda bolalar o‘zlariga juft topib, bir-birlarining O‘ng qo‘llarini ushlashi kerak. Tarbiyachi o‘yinni davom ettirish uchun O‘ng va chap qo‘l so‘zları bilan boshlasa buladigan tana a’zolarining nomini aytadi (Masalan, chap qo‘l, o‘ng qo‘l bosh barmogi, o‘ng va chap qo‘l).

Bolalar bilimini tekshirish va mustaxkamlash uchun savollar:

1. Rasmni o‘ng qo‘lda chizasizmi, chap qo‘ldami?
2. Siz qaysi qo‘lda ovqat yeysiz?

Faoliyat yakunida bolalarni rag‘batlantirish.

Fazoviy tasavvur

Mavzu: O‘ng vachap qo‘lni farqlashni O‘rgatishni davom ettirish

Maqsad:

- Bolalarga o‘ng va chap qo‘lni farqlashni o‘rgatish.

Kutilayotgan natija:

- Bolalar o‘ng va chap qo‘lni farqlashni O‘rganadilar.

Kerakli jihozlar:

- Bayroqchalar (har bir bolaga).
- 2 ta koptok va 2 ta savatcha.
- Tugmalar, yong'oqlar.

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar, siz bu qo'limiz o'ng, bu qo'limiz chap deyilishini bilib olgansiz, to'g'rimi? Bugun biz siz bilan turli o'yinlar o'ynaymiz. Bu o'yinlar yordamida o'ng va chap qo'limiz xaqida yaxshiroq bilib olamiz. Siz bilan birinchi o'ynaydigan o'yinimiz: «**Bayroqchani ol**», deb nomlanadi.

Bu o'yinda tarbiyachi bolalarga qaysi qo'l o'ng qo'l ekanini eslashlarini, shu



qo'l bilan bayrokchani olishni; bayroqchani chap qo'lga utkazishni, qo'lni yuqori ko'tarishni, bayrokchani silkitishni va yana boshaqa qo'lga o'tkazishni taklif qiladi. Yoki ko'k bayroqchani o'ng qo'lga, sariq bayroqchani chap qo'lga olish. Bayroqchalarining o'rnini almashtirish. Shundan so'ng tarbiyachi suraydi: «Bayroqning rangi qanday? U qaysi qo'lingizda?»

«Qaysi qo'l bilan aniqroq?» o'yini

Topshiriq: koptok bilan nishonga, -masalan, yarim metrdan uzoq bulmagan masobaqa koptokni maxkamlangan savatga (qutiga) tushirish, yerga chizilgan doiraga tushirish.

Mashqning amaliy ahamiyati: bolalar o'ng va chap qo'llarini farqlashni o'rghanadilar, irg'itishni harakatning asosiy turlaridan biri sifatida o'zlashtiradilar, harakat reaktsiyalarining fazoviy aniq bulishini mashq qiladilar. (Shu Maqsadda koptokni darvozaga dumalatib kiritishni taklif qilish mumkin). Joylashish masofasi dastlab bir metrdan oshmasligi kerak.



«Qaysi qo'l bilan tezrok?» O'yini.

Topshiriq: tugmalarni, yongoklarni oldin bir qo'l bilan, keyin ikkinchi qo'l bilan terish. Tarbiyachi bolalarga qaysi (O'ng yoki chap) qo'l epchil ekanini uzlari aniqlashlarini taklif qilishi mumkin.

Tarbiyachi: Bolajonlar biz qaysi o'yinlarni o'ynadik, O'yinlarimiz sizlarga yoqdimi? O'ng va chap qo'lni yaxshi bilib oldingizmi? Qani o'ng qo'lni belga qo'yamiz, chap qo'lni yelkaga, endi chap qo'lni belga, O'ng qo'lni yelkaga qo'yamiz, juda yaxshi, barakalla bolajonlar.

Bilimlarni aniklash va mustaxkamlash uchun savollar:

1. Koptokni chap qo‘l bilan nishonga otish osonmi, o‘ng qo‘l bilan otish osonmi?
2. Tugmalarni qaysi qo‘lda terish oson buldi, o‘ng qo‘ldami, chap qo‘ldami? Faoliyat yakunida bolalarni rag‘batlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonun
2. Sorokina A.I “Bolalar bog‘chasida didaktik o‘yinlar”.
3. Asqarova D.Q “Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi”.
4. Internet saytlari:
5. www.ziyonet.uz
6. www.google.com
7. www.uz – Milliy qidiruv tizimi

U.I.Suvonqulov

**MAKTABGACHA
YOSHDAGI BOLALARDA ELEMENTAR
MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH**

(Kichik guruhlar uchun faoliyat ishlanmalari)

“Bilik-ilmiy faoliyat” nashriyoti

Muharrir: Fayzullayeva G.
Texnik muharrir: Xujakulov Sh.
Nashrga tayyorlovchi: Abdullayev F.



№ 098355

“Bilik-ilmiy faoliyat” nashriyoti,
Joylashgan mazili Samarqand viloyati, Samarqand shahar,
Zavod ko‘chasi 9-uy, 10-xona. Faoliyat manzili Samarqand viloyati, Samarqand shahar,
X.Obiddinov ko‘chasi 7-uy.
tel.: +998 97-925-97-91

Terishga berildi: 06.11.2023-yil. Bosishga ruxsat etildi: 13.11.2023-yil.

Bichimi 60x84^{1/16}, “Times New Roman” garniturasi.

Bosma tabog‘i 1.25. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 2023/UK11

Bahosi kelishilgan narxda

Noshirlik litsenziyasi: № 098355

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish
milliy markazi bosmaxonasida nashr etildi

